

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

**JINOYAT ISHLARINING SUDGA QADAR
YURITILISHIDA ADVOKATNING
VAKOLATLARI**

TOSHKENT

UO'K 347.965.11(575.1)

V-74

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi O'quv va ilmiy-uslubiy kengashida 2021 yil 21 iyun kuni muhokama qilingan va nashr uchun tavsiya etilgan (21-sonli bayonnomma).

Vohidov M.M. Jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishida advokatning vakolatlari: Risola. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish markazi, 2021. – 20 b.

Taqrizchilar: huquqiy fanlar bo'yicha falsafa doktori A.D.Xusanov
yuridik fanlar nomzodi D. B. Raximov

Risolada jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishi bosqichlari, bunga mas'ul bo'lgan davlat organlar doirasi, bu bosqichlarda advokatning ishtiroki shakllari (himoyachi, advokat, vakil) hamda vakolatlari doiralari yoritib berilgan.

Yuristlar malakasini oshirish markazida malakasini oshiruvchi advokatlar uchun mo'ljallangan.

© M. M. Vohidov 2021

© Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2021

KIRISH

Jinoyat protsessida, ayniqsa uning sudga qadar bo‘lgan bosqichida jinoyat ishi yurituviga jalb etiladigan fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, qonuniy manfaatlari himoyasi ta’minlanishida advokatura instituti o‘ta muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasiga muvofiq ayblanuvchi (gumon qilinuvchi, sudlanuvchi) tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan mazkur konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta’minlash, advokatlarning mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro‘sni va nufuzini oshirish borasida bir qator chora-tadbirlar belgilanib, ular amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

Advokatura institutini yanada isloh qilish fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta’minlashga qaratilgan sud-huquq tizimi sohasidagi islohotlarning bugungi kundagi eng muhim vazifasi deb belgilangan¹.

Advokatlik tuzilmalarining vakolatlarini aniqlashtirish va huquqiy maqomini belgilab berish hamda jinoyat protsessida ayblov va himoya taraflarining protsessual huquqlari tengligini ta’minlash masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagи “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-sonli Farmonida muhim vazifa sifatida belgilandi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagи “Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-sonli Farmoni.

Advokatura institutini yanada isloh qilish masalasi mamlakat rahbariyatining doimiy e'tiborida-hamda ularning o'ta dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolik jamiyatini shakllantirish va demokratik-huquqiy davlatni qurishni maqsad qilgan ekan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash lozimligi, ularning asossiz cheklanishi jamiyat taraqqiyotiga ziyon yetkazadi.

Jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va erkinliklaridan qanchalik to'laqonli foydalana olishi – o'sha jamiyat qay darajada rivojlanganligini ko'rsatib beradi.

Mazkur huquq va erkinliklarni ta'minlashga xizmat qiluvchi advokatura institutining hozirgi zamonda naqadar yuksak ahamiyati va roli shundan ham yaqqol ko'rinish turibdi.

JINOYAT ISHLARINING SUDGA QADAR YURITILISHI SHAKLLARI VA ISH YURITISH VAKOLATI BERILGAN ORGANLAR

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 40-1-bobi ("Ishni sudga qadar yuritishning umumiy shartlari") da jinoyat ishini sudga qadar yuritish jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar qabul qilingan paytdan boshlanishi hamda tergovga qadar tekshiruvni va jinoyat ishini tergov qilishni o'z ichiga olishi belgilangan².

Tergovga qadar tekshiruv jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirish, ularni ko'rib chiqish natijasi yuzasidan qaror qabul qilishga doir tadbirlarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlari, narsalar va hujjatlarni mustahkamlash va saqlashga doir choralarни o'z ichiga oladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar olib boriluvchi mazkur tekshiruvni o'tkazishga, O'zbekiston Respublikasi JPKning 39-1-moddasiga muvofiq, quyida ko'rsatilgan keng doiradagi bir qator huquqni muhofaza qilish organlariga vakolat berilgan bo'lib, mazkur bosqichdan boshlab advokatning ham ishtirok etish borasida vakolatlari mavjud.

²O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 320-1-moddasi.

Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichlari



**1. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar
qabul qilingan payt**



2. Tergovga qadar tekshiruv



**3. Jinoyat ishini qo'zg'atish
3-1. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish**

4. Jinoyat ishini tergov qilish

**4. Jinoyat ishi bo'yicha
surishtiruv olib borish**



**5. Jinoyat ishini ko'rib chiqish va ayblov xulosasini (ayblov
dalolatnomasini) tasdiqlab, sudga o'tkazish uchun
prokurorga yuborish;**

5-1. Jinoyat ishini harakatdan tugatish yoki to'xtatish



**6. Ayblov xulosasi (ayblov
dalolatnomasi)ni tasdiqlab,
jinoyat ishini sudga yuborish**

**6.1. Jinoyat ishi dastlabki
tergov (surishtiruv)ga qaytarish**



Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar:

- 1) ichki ishlar organlari;
- 2) harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari — ularga bo'ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o'quv mashqlari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog'liq jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoxud o'quv yurti joylashgan yerda sodir etgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;
- 3) davlat xavfsizlik xizmati organlari — qonunga ko'ra ularning yuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibxonalarini hamda turmalarning boshliqlari — shu muassasalar xodimlari xizmatni o'tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlarga doir ishlar, xuddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;
- 5) davlat yong'indan nazorat qilish organlari — yong'lnarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha;
- 6) chegarani qo'riqlash organlari — davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;
- 7) olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;
- 8) davlat bojxona xizmati organlari — bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;
- 9) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari — byudjet, soliq va valyuta to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;
- 10) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari — voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlashga, sud qarorini bajarmaslikka, band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etishga doir ishlar bo'yicha, shuningdek elektr, issiqlik

energiyasi, gaz, suvdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlar bo‘yicha;

11) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Chakana savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida huquqbazarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari — bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalaridagi huquqbazarliklarga doir ishlar bo‘yicha;

12) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning joylardagi bo‘linmalari — qonun bilan ularning ish yuritishiga berilgan ishlar bo‘yicha;

13) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati — uning yurituviga taalluqli ishlar bo‘yicha.

14) Tergovga qadar tekshiruv surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror tomonidan ham olib borilishi mumkin.

Mazkur organlarning boshlig‘i va uning mansabdor shaxsi vakolatlari quyidagilardan iborat:

-tergovga qadar tekshiruvni boshlash yoki o‘ziga bo‘ysunuvchi boshqa mansabdor shaxsga uni yuritishni topshirish;

- jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoki ish qo‘zg‘atishni rad etish yoxud arizani, xabarni tergovga tegishliligiga ko‘ra o‘tkazish.

Bunda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining qarorlari mazkur organ boshlig‘i tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs jinoyatning oldini olish yoki uning sodir etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni qidirib topish hamda jinoyat tufayli yetkazilgan mulkiy zararning o‘rni qoplanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan, kechiktirib bo‘lmaydigan barcha harakatlarni amalga oshirishi shart.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruvni yoki tezkor-qidiruv tadbiralarini amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi zimmasiga tergovchi, surishtiruvchi yuritayotgan ish bo‘yicha ayrim protsessual harakatlarni va tezkor-qidiruv tadbiralarini o‘tkazish to‘g‘risidagi topshiriqlarini bajarish hamda tergovchiga, surishtiruvchiga protsessual harakatlarni bajarishida ko‘maklashish majburiyati ham yuklatiladi.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotganda, xuddi shuningdek tergovchining, surishtiruvchining topshirig‘ini bajarayotganda, O‘zbekiston Respublikasi JPKda belgilangan qoidalarga amal qilgan holda protsessual harakatlarni amalga oshiradi va qarorlar qabul qiladi.

Bundan tashqari, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar zimmasiga zarur choralar ko‘rish vazifasi, shu jumladan jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, O‘zbekiston Respublikasi JPKning qoidalariiga muvofiq tekshirib chiqilganidan so‘ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko‘rish vazifasi yuklatiladi.

Ichki ishlar, davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, davlat bojxona xizmati organlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va ularning joylardagi bo‘linmalari shu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishga haqli.

Jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshiriladi.

Dastlabki tergov O‘zbekiston Respublikasi JPKning 345-moddasasi ikkinchi-yettinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

Tergovi surishtiruv shaklida o‘tkaziladigan jinoyat ishlari tergovning har tomonlama, xolisona va to‘la o‘tkazilishini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi JPKning 381-5-moddasiga muvofiq prokurorning asoslantirilgan qaroriga ko‘ra dastlabki tergov olib borish uchun topshirilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 344-moddasiga ko‘ra, dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi.

Bunda, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 345-moddasasi 5-qismiga ko‘ra, eng keng spektrdagи jinoyat tarkiblari bo‘yicha tergov ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Prokuratura organlari tomonidan, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 345-moddasasi 2,3-qismlariga asosan shaxsnинг hayotiga qarshi qaratilgan,

mansabdorlik jinoyatlari, ayrim iqtisodiyot sohasidagi jinoyat ishlari bo‘yicha, harbiy prokuratura esa harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyat ishlari tergovini amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 345-moddasi 4-qismiga asosan Davlat xavfsiligi xizmati organlari tomonidan asosan tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyat ishlari tergov qilinadi.

Surishtiruv O‘zbekiston Respublikasi JPKning 381-2-moddasi birinchi — uchinchi qismlarida nazarda tutilgan jinoyat ishlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 38-1-moddasiga ko‘ra, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv:

1) ichki ishlar organlarining;

2) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining va uning joylardagi bo‘linmalarining;

3) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining va uning joylardagi bo‘linmalarining;

4) O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining va uning joylardagi bo‘linmalarining;

5) O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining va uning joylardagi bo‘linmalarining surishtiruvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

JINOYAT ISHLARINING SUDGA QADAR YURITILISHIDA ADVOKAT ISHTIROKINING SHAKLLARI VA UNING VAKOLATLARI

Advokatning jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirokidagi maqomi hamda vakolatlari doirasi, uning jinoyat ishi bo‘yicha aynan kimning manfaatini himoya qilishiga ko‘ra, quyidagi uch shaklda namoyon bo‘ladi:

1. Himoyachi;
2. Advokat;
3. Vakil.

Advokatning jinoyat protsessida asosiy ishtirok etadigan maqomi – himoyachi shaklini ko‘rib chiqish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 49-moddasiga muvofiq, **himoyachi** - gumon qilinuvchilarning, ayblanuvchilarning, sudlanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirish hamda ularga zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsdir.

Ishda himoyachilar sifatida advokatlar ishtirok etishlari mumkin. Advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatlilikini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo‘l qo‘yiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki qonuniy vakillaridan birining advokat bilan bir qatorda himoyachi sifatida ishtirok etishiga gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosnomasi bo‘yicha surishtiruvchining, tergovchining qarori yoki sud ajrimiga binoan yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Himoyachining ishda ishtirok etishiga jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligiga bo‘lgan huquqi amalda cheklangan paytdan boshlab ruxsat etiladi.

Himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning qonuniy vakillari, shuningdek gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosi yoki roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining iltimosiga ko‘ra surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishda himoyachining ishtirok etishini ta’minlaydi.

Tanlangan himoyachining yigirma to‘rt soat ichida ishda ishtirok etishga kirishishga imkoniyati bo‘lmagan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yoxud ularning qarindoshlariga boshqa himoyachini taklif etishni yoki himoyachi tayinlashni so‘rab O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmalariga murojaat qilishni tavsiya etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi tanlagan himoyachi istalgan vaqtda ishda ishtirok etishga kirishishga haqlidir.

Himoyachi jinoyat ishining sudga qadar yuritilishi bosqichida quyidagi ishlar bo‘yicha:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy holati buzilganligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha;
- 3) ish olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo‘yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo‘yicha;
- 5) shaxslarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo‘lgan ishlar bo‘yicha;
- 6) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
- 7) tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda;
- 8) o‘ta og‘ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo‘yicha;
- 9) shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, shuningdek qamoqda saqlash, uy qamog‘i muddatini uzaytirish masalasi ko‘rib chiqilayotganda;
- 10) aybiga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzilgan ishlarbo‘yicha ishtirok etishi shart;

Shu bilan birga, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo‘yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Agar yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan hollarda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining iltimosiga ko‘ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari surishtiruvchining, tergovchining, prokuorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yohud ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushgan paytdan e’tiboran to‘rt soatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minlashi shart.

Shuningdek, endiklikda **gumon qilinuvchidan, ayblanuvchidan yoki sudlanuvchidan** tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning

mansabdor shaxslari tomonidan **arizalar, tushuntirishlar yoki ko‘rsatuvar olish** mazkur jinoyat ishi o‘z yurituvida bo‘lgan surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va **faqat himoyachi ishtirokida amalga oshiriladi**, bundan belgilangan tartibda himoyachidan voz kechilgan hollar mustasno.³

Mazkur yangilik, yaqin o‘tmishda bo‘lgan va mamlakatimiz rahbari tomonidan keskin tanqid qilingan – protsessual tartibda ushlangan yoki “qamoq” ehtiyyot chorasi qo‘llanilgan shaxslarga nisbatan qiyonoq usullarini qo‘llagan holda istagan “ko‘rsatuv”ni olish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Himoyachining vakolatlari uning huquq va majburiyatları majmuasidan iborat bo‘lib, quyidagilardan tashkil topgan

Himoyachining jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida bo‘lgan huquqlari:

- manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning nimada gumon qilinayotganligi yoki ayblanayotganligini bilish;
- advokatlik guvohnomasini ko‘rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan so‘ng ishda ishtirok etish;
- gumon qilinuvchi so‘roq qilinayotganda ishtirok etish, shaxsga ayblov e’lon qilinayotganda hozir bo‘lish hamda ayblanuvchi so‘roq qilinayotganda, shuningdek ularning ishtirokida o‘tkaziladigan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish va gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga, guvochlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga savollar berish;
- boshqa tergov harakatlari yurgizilayotganda surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan ishtirok etish;
- o‘zi ishtirok etgan tergov harakatining yuritilishi xususida yozma mulohazalar berish;
- iltimosnomasi berish va rad etish;
- dalillarni to‘plash va taqdim etish;
- gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ishtirokida o‘tkazilgan protsessual harakatlarga oid hujjatlar bilan, surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom

³O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual kodekslariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-675-sonli Qonuni

bo‘lganidan keyin esa jinoyat ishining barcha materiallari bilan tanishish hamda undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nuxalar olish yoki ularda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish;

- agar himoyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lsa, davlat sirlari, tijorat siri yoki boshqa sirni o‘z ichiga olgan axborot bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tanishish;

- surishtiruvchining, tergovchining, prokuorning va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish;

- agar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi qamoqda saqlanayotgan yoki uy qamog‘ida bo‘lsa, himoyachi u bilan jinoyat ishini yuritishga mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdar shaxslarning ruxsatisiz, uchrashuvlarning soni va davom etish vaqtini cheklanmagan holda xoli uchrashishga haqli.⁴

Mazkur keng doiradagi huquqlar orasida himoyachining jinoyat ishi bo‘yicha dalillarni to‘plash va taqdim etish huquqini amalga oshirilishida, ushbu dalillar jinoyat ishi materiallariga qo‘sib qo‘yilishi, shuningdek tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov o‘tkazish va jinoyat ishini sudda ko‘rish jarayonida majburiy baholanishi lozim.

Himoyachi dalillarni quyidagi usullarda:

- ishga taalluqli axborotga ega bo‘lgan shaxslarni so‘rovdan o‘tkazish hamda ularning roziligi bilan yozma tushuntirishlar olish;

- davlat organlariga va boshqa organlarga, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga so‘rov yuborish hamda ulardan ma’lumotnomalar, tavsifnomalar, tushuntirishlar va boshqa hujjatlarni olish orqali to‘planishi mumkin.⁵

Himoyachining jinoyat ishini sudga qadar yuritilishi bosqichidagi majburiyatları:

⁴O‘zbekiston Respublikasi “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat ishini yuritish chog‘ida qamoqda saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni 22-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 53-moddasi.

⁵O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 4 apreldagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariiga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-470-sonli Qonuni.

- gumonni yoki ayblovni rad etadigan yoxud javobgarlikni yengillashtiradigan holatlarni aniqlash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullarni qo'llashi hamda guman qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga zarur yuridik yordam ko'rsatishi;

- haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi;

- ishning tergovi va sud majlisi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Himoyachi o'z vazifasini amalga oshirishi munosabati bilan bilgan ma'lumotlarni oshkor qilishga haqli emas.

Shuningdek, ishda ishtirok etish haqida bitim tuzilgan yoki tayinlangan vaqtidan boshlab advokat himoyachi vazifasini bajarishni rad etishga haqli emas.

Jinoyat ishining sudga qadar yurituvi bosqichida advokatning **advokat maqomida** jinoyat ishi bo'yicha guvoh sifatida jalb qilingan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi hamda ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.⁶

Jinoyat ishida taraflar manfaatini himoya qilayotgan shaxs mazkur ish bo'yicha guvohning advokati bo'lishi mumkin emas.

Himoyachi singari, guvohning advokati ishda ishtirok etishga u advokatlik guvohnomasini ko'rsatganidan va orderni taqdim etganidan so'ng, guvoh chaqirilgan paytdan e'tiboran qo'yiladi.

Guvohning advokati vakolatlari himoyachinikiga nisbatan ancha qisqa bo'lib quyidagilardan iborat.

Huquqlari:

- huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilayotgan shaxsning qaysi jinoyat ishi bo'yicha chaqirilganligini bilish;

- guvohning so'roq qilinishida, shuningdek u ishtiroki bilan o'tkazilayotgan boshqa tergov harakatlarida ishtirok etish, unga qisqa maslahatlar berish;

- so'roq qilayotgan shaxsning ruxsati bilan guvohga savollar berish;

- guvohni so'roq qilishda ishtirok etayotgan tarjimonni rad qilish haqida qonunda belgilangan tartibda arz qilish;

⁶O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 66-1-moddasi

- so‘roq tugaganidan so‘ng guvohning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi, so‘roq bayonnomasiga kiritilishi lozim bo‘lgan arzlarini bayon etish.

Majburiyatlar:

- guvohga zarur yuridik yordam ko‘rsatish;
- dalillarni yo‘q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko‘ndirishga urinish va boshqa qonunga xilof harakatlar orqali haqiqatni aniqlashga to‘sinqinlik qilmaslik;

- ishni tergov qilishda va sud majlisi vaqtida tartibga rioxalish.

Advokat jinoyat ishi bo‘yicha sudga qadar ish yurituvi bosqichida jabrlanuvchining, fuqaroviylar da‘vogarning, fuqaroviylar javobgarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilganida **vakil** tariqasida ishda ishtirok etadi.⁷

Yuridik shaxsning rahbari tomonidan berilgan ishonch qog‘ozni bo‘yicha yuridik shaxslarning vakili sifatida advokatlarga ishda ishtirok qilishga ruxsat etiladi.

Bunda, jabrlanuvchi, fuqaroviylar da‘vogar yoki fuqaroviylar javobgar vakili ishda o‘zi vakillik qilayotgan shaxs bilan birga, shuningdek uning o‘rnida ham ishtirok etishga haqli. Jabrlanuvchi, fuqaroviylar da‘vogar va fuqaroviylar javobgar ish yuritishning istalgan vaqtida vakildan voz kechishga yoki boshqa shaxsni vakil qilib olishga haqlidir.

Vakilning jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichidagi huquqlari jabrlanuvchining, fuqaroviylar da‘vogarning, fuqaroviylar javobgarning ega bo‘lgan huquqlari doirasida bo‘lib, quyidagilardan iborat.

Jabrlanuvchining huquqlari:

- ko‘rsatuv berish;
- dalillar taqdim qilish;
- iltimosnomalar berish va rad qilish;
- o‘z ona tilidan va tarjimon xizmatidan foydalanish;
- surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etish;
- surishtiruvchi yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan

⁷O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 62-moddasi

ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish;

- qonunda nazarda tutilgan hollarda yarashuv to‘g‘risida ariza berish;
- surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish.

Fuqaroviylar da’vogar huquqlari:

- fuqaroviylar da’vo qo‘zg‘atish va uni quvvatlash;
- dalillar taqdim qilish;
- qo‘zg‘atilgan da’vo bo‘yicha tushuntirishlar berish;
- iltimosnama berish va rad qilish;
- surishtiruvchidan, tergovchidan, prokurordan da’voni ta’minlash choralarini ko‘rish haqida iltimos qilish;
- surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish;
- surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyatlar berish.

Fuqaroviylar javobgar huquqlari:

- ayblov va fuqaroviylar da’voning mazmunini bilish;
- da’voga e’tiroz bildirish;
- tushuntirish berish;
- dalillar taqdim qilish;
- iltimosnama berish va rad qilish;
- surishtiruv yoki dastlabki tergov tamom bo‘lganidan so‘ng ishning barcha materiallari bilan tanishish va undan zarur ma’lumotlarni yozib olish, materiallar va hujjatlardan texnika vositalari yordamida o‘z hisobidan ko‘chirma nusxalar olish yoki ulardagi ma’lumotlarni o‘zga shaklda qayd etish;
- surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar keltirish.

Vakilning majburiyatları:

- o‘zi vakillik qilayotgan shaxslarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

- ularning ishonchini suiiste'mol qilmasligi;
- surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi;
- haqiqatni aniqlashga dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish, guvohlarni ko'ndirishga urinish va qonunga xilof boshqa harakatlar bilan to'sqinlik qilmasligi;
- ishning tergovi vaqtida tartibga rioya etishi shart.

Vakil ish yuritishning istalgan vaqtida o'z majburiyatlarini bajarishni davom ettirishdan voz kechishga haqlidir.

XULOSA

Sudga qadar jinoyat ishi yurituvi jarayoning naqadar ahamiyatliligi, huquqshunoslar orasida mashhur bo'lgan – “Sudga qadar qilingan barcha harakat - sud uchun” degan qoidada o'z ifodasini topgan.

Ushbu bosqichda advokatlar tomonidan o'z himoyasi ostidagi shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida o'z vakolatlaridan to'laqonli foydalanishi, himoya yo'nalishini to'g'ri tanlaganligi, jinoyat ishi sudda ko'riliishi jarayonida o'z aksini topadi va himoyani yuqori sifatda bo'lishini ta'minlaydi.

Ayrim hollarda esa, jinoyat ishining sudga qadar yetib bormasdan, ungacha bo'lgan bosqichda harakatdan tugatilishiga hamda himoya ostidagi shaxsning huquq va erkinliklari himoyasi ta'minlanishiga ham erishishiga xizmat qilishi mumkin.

Shunday ekan, advokatning sudga qadar jinoyat ishi yurituvdag'i vakolatlari doirasi, uning "bisoti"da mavjud bo'lgan qonuniy vositalar va usullardan mahorat bilan unumli va o'rinli foydalanishi, qonun ustuvorligi va adolatning ta'minlanishi borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

TAVSIYA ETILAYOTGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR VA ADABIYOTLAR

Normativ-huquqiy aktlar:

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T./
<https://lex.uz/docs/111460>

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldaggi O‘RQ-703-soni
“Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni/<https://lex.uz/docs/5534923>

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 27-dekabrdagi 349-I-son
“Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 3
fevraldagisi O‘RQ-749-soni Qonuni tahririda)/ <https://lex.uz/docs/54503>

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 18 fevraldagii O‘RQ-675-soni
“O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-protsessual
kodekslariga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 4 apreldagi O‘RQ-470-soni “Sud-
tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini
kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan
O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va
qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagii
“Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning
mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-sonli
Farmoni.

Yuridik adabiyotlar:

Формирование культуры прав человека – важнейшая задача в сфере
обеспечения защиты прав и свобод человека, дальнейшего развития
гражданского общества в стране. Материалы международного круглого
стола. – Т., 2012.

Либанова С.Э.Роль и значение института адвокатуры как института
гражданского общества и неотъемлемой части судебной системы,
руководствующейся принципом состязательности
[//https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-znachenie-instituta-advokatury-kak-instituta-grazhdanskogo-obschestva-i-neotemlemoy-chasti-sudebnoy-sistemy/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-znachenie-instituta-advokatury-kak-instituta-grazhdanskogo-obschestva-i-neotemlemoy-chasti-sudebnoy-sistemy/viewer)

Кристиан Т. Защита прав человека в соответствии с универсальным
международным правом // <https://www.un.org/ru/chronicle/article/21878>

MUNDARIJA

Kirish	3
Jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishi shakllari va ish yuritish vakolati berilgan organlar	4
Jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishida advokat ishtirokining shakllari va uning vakolatlar	9
Xulosa	17
Tavsiya etilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar va adabiyotlar	18

Vohidov Mahkam Mubinovich
yuridik fanlar nomzodi

**Jinoyat ishlarining sudga qadar yuritilishida
advokatning vakolatlari**

Risola

Bosishga ruxsat etildi: 15.08.2021
Bichimi: “Times New Roman”
garniturada rakamli bosma usulda bosildi
Shartli bosma tabog‘i . Adadi. Buyurtma №

100060, Toshkent, Ya.G‘ulomov ko‘chasi, 74.
Tel.: +998 90 972279, www.tiraj.uz

”TOP IMAG‘E MEDIA”
bosmaxonasida chop etildi.